

OPTIK-MNESTIK AFAZIYA

Ruziyeva Guzal Shuxrat qizi

*Alfraganus Universiteti Pedagogika fakulteti defektologiya (logopediya)
yo’nalishi 3-bosqich talabasi.*

Ilmiy rahbar Utbasarova Umida Mexmanovna

Alfraganus Universiteti Pedagogika va Psixologiya kafedrasini o’qituvchisi.

Anatotsiya: Maqolada optik-mnestik afaziya bilan kasallangan bemorlar uchun logopedik korreksiya jarayonining bosqichlari tahlil qilinadi. Optik-mnestik afaziya — bu ko’rish va xotira bilan bog’liq bo’lgan nutq buzilishi shakli bo’lib, bemorning ko’ruv tasavvurlarini ishlatib, predmetlarning nomlarini eslab qolish va nutqida ushbu predmet nomini aytishga qiyinchiliklarga uchraydi.

Kalit so’zlar : Optik , mnestik , bilish jarayonlari, fazoviy tasavvur, predmet, bemor, afaziya, belgilari, ko’ruv analizator, usullar, reabilitatsiya, diagnostika, didaktik kartochkalar.

Аннотация: В статье анализируются этапы процесса логопедической коррекции больных оптико-мнестической афазией. Оптико-мнестическая афазия — форма речевого расстройства, связанная со зрением и памятью, при которой больной с трудом запоминает названия предметов с помощью зрительного воображения и произносить название этого предмета в речи.

Ключевые слова: Оптические, мнестические, когнитивные процессы, пространственное восприятие, объект, больной, афазия, симптомы, зрительный анализатор, методы, реабилитация, диагностика, дидактические карты.

Optik-mnestik afaziya A.R.Luriya tomonidan 1969-yilda eng birinchilardan fanga kiritgan shaxs hisoblanadi A.R. Luriya optik-mnestik afaziyani akustik-mnestik afaziyadan farqlashda bemorning eshituv xotirasi saqlangan holatda kòrvu tasvirining buzulishi bilan namayon bòlishini ta’kidlagan. Optik-mnestik afaziya afferent yollar faoliyatining buzulishi natijasida kòrvu tasviri orqali predmet nomini aytma olmasligi yòqolishi natijasidir. Agar bemor predmet nomini aytishga qiynalayotgan holatida bo’lsa, sözning birinchi harfini eslatib yuborsangiz bemor shu zaxoti ösha sözni tezda topib aytib bera oladi. Bemor predmetni aniq talaffuz qilmasdan kòpincha uning vazifasi haqida gapiradi. Anavuuuu boshimga kiyaman,sovuqda boshim sovqatmasligi uchun (Qalpoq), anavuuuu u bilan rasm chizadiku.... (Qalam).

Optik-mnestik afaziya kasalligida bilish jarayonlari va fazoviy tasavvurlari saqlanib qolgan bòladi.

Belgilari:

- predmetlarni nomini aytma olmaydi lekin vazifasini tushuntirib bera oladi;
- kichik yordam bilan kerakli sözni darhol topa oladi, ammo qanchadur vaqt ötishi bilan yana shu holat takrorlanaveradi;

- bemor nutqida otlar kam lekin fe'lllar juda kòp;
- kòrv analizatorida va fazoviy mòljal olishda hech qanday buzulishlar kuzatilmaydi;
- kòp hollarda altsgeymer kasalligi bilan kasallangan bòladi;
- kerakli predmetni aniq kòrsatish buzilgan bo'ladi.

Ikkilamchi belgilar:

- og'zaki ekspressiv nutqning buzulishi.

Diagnostikasi.

Defektolog bemor oldiga 3 ta predmetni qøyib (ko'zoynak, daftar, kitob) va shu predmet nomini aytib berishni bemordan so'rasha bu taqadigan, bunga yozsa bo'ladi, buni biz o'qimiymiz deb javob beradi.

Neyropsixologik diagnostika.

Bemorga predmetning sifat-xususiyatlari va belgilari aytildi. Masalan: 1) chiroyli gullarni so'lib qolmasligi uchun ishlataladigan buyumning nomi (nima?) choyni shirin qilib ichishimiz uchun biz (nimani) aralashtiramiz?

2) Bemor bir nechta predmetlarni umumiylarini xususiyatlarini birlashtirgan holatda bitta söz bilan nomlashi kerak. Bemorning oldiga bir nechta rasmlni kartochkalar qøyiladi. Masalan: olma, nok, uzum. Bemor bu rasmlarni kòrib umumlashtirgan holatda mevalar deb nomlashi kerak. Agar bemorga berilayotgan yordam öz natijasini bersa, bu kamchilik söz va predmetning tasviri bilan bog'liq, agar berilayotgan yordam öz natijasini bermasa, bu kamchilik sözning tovushli tuzilishi bilan bog'liq.

Reabilitatsiya.

Optik-mnestik afaziyada predmet va predmet tasvirini tiklash ishlari bemorga berilgan rasmlni kartochkalarni qismlarga ajratish hamda bir butunni hosil qilish yordamida amalga oshiriladi. Bunda biz birinchi navbatda inson ta'na qismlari aks ettirilgan katta, yorqin va yakka tarzda ko'rsatilgan rasmlni kartochkalar ko'rsatilib, tanishtiriladi. Bemor rasmlni kartochkani tagida bosma harflar bilan yozilgan sözlarni öqishi va bu öqigani va kòrgan tasvirini öz tana qismlarida kòrsatishi va nomlashi lozim bo'ladi.

Keyingi bosqichlarda bemorga öz xonasida mavjud bòlgan predmetlarning xususiyatlari va vazifasi bòyicha topish va uni nomlashga orgatiladi. Masalan: siz uni har kun ko'rasiz, bu narsa juda kerakli buyum hisoblanadi, unda sizning kiyimlaringiz ilingan va taxlangan tarzda turadi bu nima(kiyim javoni).

Yakuniy bosqichlarda bemor eshituv va kòrv xotirasiga tayangan holatda syujetli rasmlar asosida hikoya tuzish va hikoyani qayta gapirib berishga orgatiladi. Matnlar sodda gaplardan iborat va aniq ko'rsatilgan, yorqin tasvirli rasmlari bor kichik ertak va hikoyalar bo'lishi mumkin.

Korreksion ish usullari va yònaliishlari:

Bemorning oldiga bir nechta predmet qøyiladi va har bir predmet nomi bemor bilan birgalikda öqiladi va daftarga yoziladi. Bu usul bemorga qaysi predmet haqida fikr ketayotganligini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

1-bosqichda semantik jihatdan bir guruxga kiruvchi predmetlar saralab olinadi, keyinchalik bu rasmlar kartochkasi turli xil semantik guruxlarga mos ravishda aralash tarzda

bemorga beriladi. Defektolog bemorning oldiga qoyilgan rasmlar asosida turli xil savollar bera boshlaydi. Masalan: ovqatni nimada yeymiz? (qoshiqda), muzqaymoqni yilning qaysi faslida iste'mol qilamiz? (yozda) o'quvchilar o'qishni nimadan o'rganadilar?(kitob) Oppoqqina shal pang quloq bu nima?(quyon).

2 -bosqichda Gulning qismlari haqida yozib bering (ildiz,poya,band,barg va gul)

3 – bosqichda Bemorning oldiga ikki semantik guruha mansub rasmli kartochkalar qoyiladi bemor shu rasmlar ichidan masalan; oshxona va uy qismlarini topishi va bir butun uyni va oshxona hosil qilishi kerak.

4 -bosqichda Bemorga ikki qator qilib berilgan rasmlarni xususiyatiga kora ajratishni taklif qiladi. Masalan; meva va sabzavotlar.

5 -bosqichda Bemorda konstruktiv praksisni shakllantirish uchun 3 ta elementdan iborat predmet rasmi ko'rsatiladi.

- kiyimning yetishmayotgan qismini topish

- predmetning yetishmayotgan qismni chizish va oxirigacha boyash so'raladi.

6-bosqichda Bemorga syujetli rasmlar ketma ketlikda logoped bilan birgalikda takrorlash yordamida mustahkamlanadi

Bemor bu vazifani mustaqil ozlashtira olgandan song logoped yordamiziz syujetli rasmlarni nomlaydi ketma ketlikda taxlaydi va qisqa hikoya tuzib beradi.

7-bosqichda Berilgan rasmli kartochkaga shu predmet xususiyati yozilgan yozuvli kartochkani topib birlashtirish va shu rasmni orqasini ogirgan holatda yozuvli rasmni oqing va bu ogirilgan predmet nomini topish kerak.

Masalan :

Tarvuz – dumaloq, katta, qizil va yashil rangda bo'ladi.

Qovun- uzunchoq, katta, sariq rangda bo'ladi.

Bodring - uzunchoq , yashil rangli , salatga solib yeymiz.

8- bosqichda Bemorga 2 ta yozuvli , 2 ta rasmli kartochkalar beriladi bemor shu kartochkalar yordamida mustaqil gap tuzishi kerak bo'ladi.

Bemorga berilayotgan rasmlni kartochkalarning hammasi ot soz turkumi bolishi kerak

Xulosa: Optik-mnestik afaziya bilan og'rigan bemorlarning nutqini va ko'rib eslab qolish qobiliyatlarini tiklashda logopedik korreksiya ishi muhim ahamiyatga ega. Pedagogik- logopedik korreksion ishlar ta'siri nutq buzilishlarini kamaytirishga va bemorning ijtimoiy moslashuvini yaxshilashga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI :

1.Pedagogika va psixologiya ilmiy-texnikasi, 2(3), 15-20.

2.Mansurova, G. (2019). "Akustik-mnestik afaziya: klinik ko'rinishlari va tashxislash." O'zbekiston nevrologiya jurnalı, 3(2), 45-50.

3.Davlatov, Sh. (2021). "Afaziya bilan og'rigan bemorlar uchun logopedik yondashuvlar." Tashkent: O'zbekiston tibbiyot akademiyasi nashriyoti.

- 4.Kuznetsova, E. (2016). "Akustik-mnestik afaziya: o'rganish va davolash usullari." Nevrologiya va psixiatriya jurnalni, 4(1), 30-35.
- 5.Pirogova, L. (2017). "Logopedik terapiya: metodik qo'llanma." Moskva: Pedagogika.
- 6.Suleymanova, N. (2018). "Afaziya va uning turlari." Tashkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
- 7.Jabborov, A., & Karimov, B. (2020). "Logopedik korreksiya usullari." Tashkent: Ma'naviyat.